

Shamsiddinova Shavkatoy Muxitdin qizi

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabalari

Mavlanova Odina Mahmudjon qizi

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabalari

Ilmiy raxbar: Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqoladan o'quvchilarni zamonaviy metodlar bilan o'qitish va bundan tashqari mamlakatimizdagi ta'limning o'rni haqida ham yoritib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *pedagogika, fan, ta'lim, bolalar, tushuncha, tarkib, umumiylilik, sifat, mazmun, o'rganish, tushunish, metod.*

Аннотация. В этой статье рассказывается об обучении студентов современным методам и, кроме того, о роли образования в нашей стране.

Ключевые слова: педагогика, наука, образование, дети, понятие, содержание, общность, качество, содержание, изучение, понимание, метод.

XXI asrda o'qitish metodlari sifatida tushuntirishbayon metodi, suhbat metodi, analizsintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi. “Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da pedagogik ta'lim sifatini oshirish, professional pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini kuchaytirish va bu borada innovatsion yondashuvlarga asoslanish vasifalari qo'yilgan. Shu jihatdan mazkur "Bolalar pedagogikasi" o'quv fani ana shunday yangicha yondashuvlarning hosilalaridan biri hisoblanadi. Fanning ushbu 1-modulida Bolalar pedagogikasi mazmuni, maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid notmativ-huhuqiy hujjatlar, maktabgacha ta'lim xususiyatlari, boshlang'ich ta'lim asoslari hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish mavzularini yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi masalalari. O'zbekistonning

yangi taraqqiyot davrida sifatli ta'lim va uning samaradorligi muhim o'rinn tutadi. Bunda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limning mamlakatimizda tutgan o'rni va ahamiyati ortib bormoqda¹. Boshlang'ich ta'lim tizimi umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lib, using yangi vazifalari quyidagilardan iborat: - aniq, gumanitar va tabiiy fanlarning dastlabki bosqichi bilan o'quvchilarni tanishtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, savodxonlik va tarbiyalanganlik ko'nikmalarini shakllantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarni ta'limning umumiyl o'rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim bosqichlariga tayyorlash;

- boshlang'ich ta'limga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish.

O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" da mamlakatda "ilm va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni barpo etish" vazifasi qo'yilgan². Bu vazifalar ijrosi doirasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va unda ta'lim sifatiga erishish masalalari ham muhim o'rinn tutadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish va uning vositasida boshlang'ich ta'limni sifat jihatidan rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi³.

Maqolaning asosiy mazmunida boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar, ularning turlari, boshlang'ich sinflarda qo'llash usullari zamonaviy texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, umumiyl o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlar boliishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olib boriladigan metodlar ularning yoshiga mos bo'lishi kerak. Dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar turli hil bo'ladi, o'qituvchi bolalarga u metodni to'g'ri tushuntira olishi ham lozim.

Boshlang'ich sinf

darslarida **mustaqil ish metodi** asosan o'rganilgan mavzuni mustahkanilash qismida topshiriqlarni ishlash jarayonida qo'llaniladi. o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqt ni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishslash uchun topshiriq 1sinfdan boshlab beriladi va u astasekin marakkablashtirilib boriladi. Isinfda "Yozgan so'zlarining lug'atdan tekshiring", "Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing", "Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing" kabi topshiriqlar beriladi.

Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rustuzem maktablari o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ta'limi jarayoniga analiz — tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkarnish maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxshilashdir. Analiz-sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. **Deduksiya metodida** o'quvchi tayyor qoida — ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini tii dalillari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni

grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagи lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar) ga bog'liq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savoltqpshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun/ www.ziyonet.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston-inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. -Toshkent,2021-yil
3. Mardonov Sh.Q.Pedagogika fanidan o'qitishning elektron- modulli didaktikta'minotni ishlab chiqish texnologiyasi.-Toshkent 2021
4. Jabborova O.M Ochilova F. IBOLALAR PEDAGOGIKASI
5. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari.Onaxon Jabborova
6. Бобаева, З. М. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРЫ РАЗЛИЧНЫХ НАРОДОВ. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 66-71).
7. Бобаева, З. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. Экономика и социум, (1-1 (104)), 183-191.
8. Бобоева, З. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 22-25.
9. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish. *Science and Education*, 4(2), 973-977.